QISHLOQ XO‘JALIGIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA’MINLASHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Umaraliyev Olimjon Raushanovich
Guliston davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19648046

Annotatsiya. *Ushbu maqolada barqaror qishloq xo‘jaligi, uning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi o‘rni hamda zamonaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Bu jarayon ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, qayta ta’mirlash, qurish, inovatsion hamda investitsiyani amalga oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Shuningdek, barqaror qishloq xo‘jaligini ta’minlashdagi mavjud muammolar va ularni hal etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*
Kalit so‘zlar: *qishloq xo‘jaligi, barqaror rivojlanishi, samaradorlik, infratuzilma, raqamli texnologiyalar, investitsiya, fermer xo‘jaligi, innovatsion rivojlanish, iqtisodiy istiqbol.*
Abstract. *This article analyzes sustainable agriculture, its role in increasing production efficiency, and directions for the development of modern services. This process is a topical issue in the purchase, repair, construction, innovation and investment of means of production. Also, existing problems in ensuring sustainable agriculture and proposals for their solution are developed.*
Keywords: *agriculture, sustainable development, efficiency, infrastructure, digital technologies, investment, farming, innovative development, economic prospects.*
Аннотация. *В статье анализируется устойчивое сельское хозяйство, его роль в повышении эффективности производства и направления развития современных услуг. Этот процесс является актуальной проблемой при закупке, ремонте, строительстве, инновациях и инвестировании в средства производства. Также рассматриваются существующие проблемы обеспечения устойчивого сельского хозяйства и предлагаются пути их решения.*
Ключевые слова: *сельское хозяйство, устойчивое развитие, эффективность, инфраструктура, цифровые технологии, инвестиции, агробизнес, инновационное развитие, экономические перспективы.*

Kirish. Mamlakatimizda barqaror qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishi tarmoqda mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish vositalari oqilona tarzda takror ishlab chiqarilishini talab etadi. Bu jarayon ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, qayta ta’mirlash, qurish, inovatsion hamda ijtimoiy munosabatlar yig‘indisidan tashkil topadi.

Investitsiya qilishda korxona o‘z mablag‘laridan imkoni boricha foydalanishi ikkita ustunlikka olib keladi: korxonada tashqi to‘lovlar mavjud bo‘lmaydi (olingan kreditlar bo‘yicha foiz, aksiyalar bo‘yicha dividentlar, ijara haqi va hakazo), shuningdek korxonani boshqarishda mustahkam pozitsiyani shakllantiradi.

Ayni paytda barqaror qishloq xo‘jaligida chetdan jalb qilinadigan mablag‘larning manbalaridan biri xo‘jalik a’zolarining vaqtincha bo‘sh yotgan mablag‘larini jalb etish hisoblanadi. Bunday investitsiyani amalga oshirish uchun korxona o‘z ichida qisqa muddatli obligatsiyalarni, veksellarni chiqarib, ularni a’zolariga ishonchli tarzda tarqatishi yoki huquqiy kuchga ega bo‘lgan ishonchli dalolatnomalarni ham berishi mumkin. Xo‘jalik a’zolari esa muomalaga berilgan

mablag‘larini ma’lum muddat o‘tgandan so‘ng belgilangan foizi bilan qaytarib olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu turdagi kapital qo‘yilma qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun hozirgi davrda yaxshi samara bermaydi. Chunki, xo‘jaliklarda hozircha qimmatli qog‘ozlarni chiqarish imkoniyatlari cheklangan, kelajakda shu masalalarga alohida e’tibor berish kerak.

Chetdan jalb etilayotgan investitsiyalari chet davlatlarining, yuridik hamda jismoniy shaxslarning investitsiyalaridan tashkil topadi.

Investorlar daromad olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob’ektlariga qo‘shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad respublika hududida chet el investitsiyalari hisoblandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda barqaror qishloq xo‘jaligi rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘nalishlaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va istiqbollari tizimli tahlil qilindi. Ishda iqtisodiy tahlil, statistik ma’lumotlarni solishtirish, kuzatish va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy tajribalar o‘rganilib, ularning o‘ziga xos jihatlari tahlil asosida umumlashtirildi. Tadqiqot natijalari barqaror qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalardan foydalanishni va samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Barqaror qishloq xo‘jaligi rivojlanishi sanoat tarmoqlari bilan o‘zaro aloqalarining kuchayishida o‘z aksini topmoqda. Shu borada qishloq xo‘jalik korxonalari rivojlantirishda investitsiya va kapital qo‘yilmalarni ahamiyati katta. Bu haqida xorijiy mamlakatlar iqtisodchi olimlari A.V. Vorokevskiy, N.D. Kolesov, A.A. Markin, Larena Gitman, Maykl Jonsning tadqiqotlarida ilmiy amaliy jihatlari asoslab berilgan.

Respublikamizda tadqiqot ishlarini olib borayotgan yetakchi olimlar S.S.G‘ulomov, E.A.Akromov, B.Yu.Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, A. Abdug‘aniyev va boshqalarning ilmiy ishlarida mamlakatimizga xorijiy sarmoya jalb etish va korxonalarni investitsiyalash muammolari o‘rganilgan.

Tahlil va natijalar. Qishloq xo‘jalik korxonalari, mashina sinash stansiyalari, ta’mirlash ustaxonalari va zavodlarning amaliyotlarida ko‘pgina muammolarni hal etishda bir nechta texnika variatlari ichidan birini yoki bir nechtasini tanlashga to‘g‘ri keladi.

Bunday iqtisodiy hisob-kitoblarni yangi tarktorlarni, avtomobillarni, qishloq xo‘jalik mashinalarini loyihalash bosqichlarida o‘tkaziladi. Kapital sarmoyalar bo‘yicha variantlarni tanlashdaga keng imkoniyatlar yanga texnikani joriy qilish loyiha uskunalarini, jihozlash kopmlektlari bilan ta’minlashda mavjud harajatlarning miqdoriga qarab, amaldaga ishlab chiqarishning samaradorligiga (ta’minlashning tannarxi yoki tovar mahsulotining 1 so‘miga bo‘lgan harajatlar darajasiga) qarab farq qiladi.

Kapital sarmoyalarning xo‘jalik yuritishdagi maqsadga muvofikligi yangi va ta’mirlangan mashinalarning, ishlab chiqarish uchun uskunalarning amaldagi texnologiyalarga mos ravishdagi zaruratiga binoan kelib chiqadi. Biroq bu ishlar o‘zining tuzilishi va texnika iqtisodiy ko‘rsatkichlari turlicha bo‘lgan mashinalar va turli ta’mirlash korxonalari tomonidan bajarilishi mumkin bo‘lganidan, kapital sramoyalarning maqsadga muvofiq qulay iqtisodiy variantlarini asoslash zarurati tug‘iladi.

Eng kichik hajmdagi sarmoya hajmi K_a hisobga olinadi, chunki ushbu mahsulotni ishlab chiqarishni tashkil qilish zarur bo‘ladi, yoki ko‘rsatilgan mashinalarni ta’mirlash qo‘shimcha kapital sarmoyalarning maqsadga muvofiqligi aniqlanadi.

$$Kd\text{-}Kb\text{-}K_a$$

Qo‘shimcha kapital sarmoyalar(K-)-bu taqqoslanayotgan ikkita sarmoyalar sarflash variantlari o‘rtasidagi (ob’ektlar) farqlar joriy variant bo‘yicha hisoblanadi. Agar kapital sarmoyalar Kb so‘m bilan amalga oshiriladigan bo‘lsa, u holda korxona yillik mahsulot chiqarishning tannarxini Sb so‘mgacha kamaytirishni ta’minlaydi.

Tannarxni kamaytirishdan keladigan umumiy yillik iqtisod (S_e) ko‘p kapital sarmoyalarni talab qiladigan (Kb) variantni joriy qilinganida quyidagicha bo‘ladi;

Bu ko‘rsatkichlarni aniqlanganidan so‘ng, qo‘shimcha xarajatlarni o‘lchash (kapital sarmoyalar K§) va olingan iqtisodni (Se) aniqlash bilan qo‘shimcha qilingan kapital sarmoyalar necha yildan so‘ng qoplanishini joriy xarajatlardan iqtisod hisobiga aniqlanadi:

bunda, T - ko‘shimcha kapital sarmoyalarining qoplash muddati: Kapital sarmoyalarning miqdorini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi:

$$C_э\text{-}C_a\text{-}C_б$$

1) ob’ektni loyihalash xarajatlari, qurilish uchun maydonchani ajratish va tayyorlar;
2) yangi uskunalar sotib olish xarajatlari, ham yetkazib berish, yig‘ishtirish, ishlatishga qadar bo‘lgan yig‘ishtirish ishlari bilan ishlatishga tayyorgarlik ishlari;
3) uskunalarni takomillashtirish uchun bo‘ladigan xarajatlar;
4) binolarni qayta tiklash yoki yangidan qurish harajatlari;
5) korxonalarni to‘ldirish yoki aylanma mablag‘larni shakllantirish xarajatlari;
6) korxonaning asosiy va aylanma mablag‘larining boshqa barcha o‘zgarishlari;

solishtirma kapital sarmoyalar (Ku) - bu kapital sarmoyalar uchun bo‘lib, bitta ta’mitrlanadigan traktor, mahsulotning hisobga olinadigan birligiga, to‘g‘ri keladigan, hamda ishlab chiqarish hajmi kapital sarmoyalar natijasida ko‘paytirilishi rejalashtiriladi. Shunday qilib, qoplanishni hisob-kitob qilishda talab qilinadigan barcha kapital sarmoyalarni xisobga olinadi.

Kapital sarmoyalarning me’yoriy va haqiqatdagi qoplanish muddatini farq qilinadi.

Me’yoriy qoplanish muddati turli ob’ektlarga kapital qo‘yilmalarni sarflashda eng yuqori ko‘rsatkich bo‘lib, ular sarmoyalarning samaradorligini ta’minlaydi. Agar kapital sarmoyalar belgilangan me’yoriy muddatlarda qoplanmaydigan bo‘lsa, ularni sarflash maqsadga muvofiq bo‘lmaydi.

Qoplanishning me’yoriy muddatiga mos keladigan (Tn) kapital sarmoyalarining me’yoriy samaradorlik koeffitsienti (Yen);

A) xalq xo‘jaligi bo‘yicha milliy daromadning yillik hajmining bir so‘miga to‘g‘ri keladigan kapital sarmoyalarning, ya’ni bu o‘sishni vujudga keltiradigan ko‘rsatkich sifatida;

B) qishloq xo‘jaligi va xalq xo‘jaligining boshqa sohalari bo‘yicha kapital sarmoyalarining bir so‘miga foydaning o‘sish ko‘rsatkichi sifatida;

V) ayrim korxonlar bo‘yicha kapital sarmoyalarning har bir so‘m jalb qilingan sarmoyalarni o‘zgartirilishi holati va samaradorligiga olingan foydaning miqdori sifatida;

Barqaror qishloq xo‘jaligidagi texnika taraqqiyotining sur’atlarini va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining samaradorlik bo‘yicha mo‘ljallangan o‘sishini hisobga olingani holda, qishloq xo‘jaligiga sarflanadigan kapital sarmoyalarining qoplanish muddatini 8-10 yil, qishloq xo‘jalik

texnikalari uchun 4-5 yilni qabul qilish mumkin. Shularga asosan samaradorlik koeffitsienti qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi uchun 0,25-0,20 bo‘ladi.

Texnika taraqqiyotining o‘sish sur’atlari, ishlab chiqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqarish kelgusida jamoat ishlab chiqarishining samaradorlik darajasini oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

Qoplanish darajasi korxonalarning tiklanish davridan boshlab yoki yangi korxonani ishga solishdan boshlanib kapital sarmoyalarining joriy xarajatlarni iqtisod qilinib qoplanishiga qadar davrni o‘z ichiga oladi. Amalda esa, kapital sarmoyalar loyihani ishlab chiqarish qurilishga yoki qayta tiklashga tayyorgarlik ko‘rish, qurilish davomida sarflanadi.

Iqtisodiy samara faqatgina mehant unumdorligining o‘sishida aks ettiriladi, hamda u kapital sarmoyalaridan foydalanish jarayonida vujudga keladi va 1 so‘m kapital xarajatga yalpi mahsulotning o‘sishi bilan aks ettiriladi, shuningdek mahsulot birligiga bo‘lgan mehnat sarfi va uning tannarxi, 100 gektar ekin maydoniga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va kapital harajatlarining qoplanish muddati bilan aks etadi.

Iqtisodiy samarani yangi texnikani joriy qilish, yangi ob’ektlarni qurish va yangidan tiklash yo‘li bilan amalga oshirilganda hisoblashlarda taqqoslash uchun asos qilib quyidagilar olinadi:

1) ishchi bo‘linma yoki ipgchi joyining ko‘rsatkichlari qo‘lmehnati bo‘yisa olinadi, agar qo‘l mehnati mashinalar bilan almashtiriladigan bo‘lsa;

2) bo‘linma, bo‘lim, sex eski almashadigan texnikalar va texnologiyalar mavjud yo‘nalishlarning ko‘rsatkichlarining o‘rniga ancha taraqqiy etgan va iqtisodiy samarali texnika va texnologiyalarning ko‘rsatkichlari linadi;

3) agar yangi texnikani va texnologiyani joriy etish ishlab chiqarishdagi korxonalar, ustaxonalar va bo‘linmalarda, masalan, ta’mirlash korxonalarida texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni tashkillashtirish kabi eng ko‘p tarqalgan amalda foydalanib kelinayotgan texnika-iqtisodiy ko‘rsatkichlar qabul qilinadi;

4) yangi ta’mirlash ustaxonlari, ta’mirlovchi mexanika zavodlari, sexlar va ularni yangidan tiklash uchun qurilish o‘rnatish yuzasidan loyihalarni ishlab chiqishda taqqoslash usullari bilan eng mukammal mamlakatdagi va xorijiy variantlar bilan solishtiriladi.

5) yangi texnika bo‘yicha iqtisodiy samardorlikni hisob kitob qilishda ko‘pincha ish xajmi bilan farq qiladigan variantlar taqqoslanadi.

Yangi, unumdor mashinalarning asosini tanlashda, yoki ta’mirlash korxonalari, ularni qata tiklash va qurilishini tanlash va asoslashda ana shunday qilinadi. Bunday hollarda kam ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha aniqliklar kiritiladi, chunki ob’ektiv ravishdagi taqqoslash faqatgina bir xildagi ishlab chiqarish hajmlarida o‘tkazilishi mumkin.

Ishlab chiqarish sharoitlarida ishlab chiqarish fondlarining kapital sarmoyalaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash - bu daromad miqdorining 1 so‘miga to‘g‘ri keladigan fondlar qaytimi bo‘lib, xalq xo‘jaligi, sohasi va korxona bo‘yicha hisob olib boriladi:

A) xalq xo‘jaligi bo‘yicha bu milliy daromad (D)ning o‘rtacha yillik ishlab chiqarish asosiy va aylanma fondlarning (F) yig‘indisiga bo‘lgan nisbati sifatida aniqlanadi. Milliy daromad faqatgina asosiy ishlab chiqarish fondlariga olib borilishi mumkin, bunda boshqa davrning o‘xshash ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanadi.

B) sohalar (sanoat, qishloq xo‘jligi va h.q.), shuningdek alohida korxonalar bo‘yicha yalpi daromad yoki sof daromad (foyda - P)ning o‘rtacha yillik ishlab chiqarish asosiy, yoki asosiy va aylanma fondlarning birgalikdagi yig‘indisining nisbati sifatida aniqlanadi:

V) ayrim mahsulotlar turi bo‘yicha sof daromad (foyda haqida ma’lumotlar bulmasa yoki hisob kitoblar oli borishda, qishloq xo‘jalik texnikasining fondlar qaytimini yillik iqtisod summasi (Eg)ni mashinalar qiymati va boshqa asosiy ishlab chiqarish fondlarining, qiymatiga bo‘lgan (Fos) nisbat sifatida aniqlanadi:

ishlab chiqarish fondlarining samaradorligi bo‘yicha boshqa ko‘rsatkich bo‘lib, fondlarga bo‘lgan talab hisoblanadi - bu fondlar qiymatining 1 so‘miga olingan daromaddir:

A) xalq xo‘jaligi bo‘yicha - bu o‘rtacha yillik ishlab chiqarish faondlari qiymatining yillik milliy daromad summasiga bo‘lgan nisbatidir:

B) sohalar (sanaot, qingloq xo‘jaligi va h.k), shuningdek ayrim korxonalar bo‘yicha urtacha yillik ishlab chiqarish fondlari qiymatining yalpi daromad, sof daromadga (foydaga) nisbatidir:

Ko‘rgazmali uslublarga binoan kapital sarmoyalarining taqqoslanuvchi iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi, shuningdek xo‘jalik va texnika qulosalarini taqqoslanadigan, yangi texnika joriy qilianadigan, ta’mirlash korxonalarining yangilari qurish va amaldagilari yangilash va h.k holatlarda aniqlanadi.

Kapital sarmoyalarining iqtisodiy samaradoligini bildiruvchi ko‘rsatkichlardan bo‘lib, eng kichik miqdordagi keltirilgan harajatlar hisoblanadi.

Iqtisodiy samaralarni aniqlashda taqqoslash uchun asos qilib mavjud ho‘jalik yurituvchi masalalarning eng yaxshi yechimlari olinadi, yangi texnikalarni joriy qilishda esa - joriy qilinadigan eng yaxshi (yoki loyihalarda ishlab chiqilgan) mamlakat va xorijiy texnikalarni qabul qilinadi.

Aniq amaliyotdagi sharoitlarda taqqoslash asoslari sifatida ushbu masalarning eng ko‘p tarqalgan uslublarini, yangi texnikani joriy qilishda esa - almashtiriladigan texnikaning ko‘rsatkichlariga asoslaniladi.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishga bo‘lgan kapital sarmoyalarning samaradorligini taqqoslovchi ob’ektlar (davrlar) bo‘yicha tuproqning sifat tarkibi va yer maydonlarining miqdoriga qarab aniqlanadi.

Yangi qishloq xo‘jaligi texnikasi va kapital sarmoyalarining xalq xo‘jaligidagi samaradorligi umumiy qilingan iqtisod bilan ifodalanadi, hamda ular respublika miqiyosidaga asosiy, keltirilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha, yanga texnik vositalarning eskilari bilan birgalikda qo‘llanish tegralari bo‘yicha ishlab chiqariladi. Mehnat harajatlari misolida iqtisodni aniqlab ko‘raylik:

$$T_e=(T_{ro}-T_{r1})\ P$$

Bunda, T_e - mehnat xarajatlari yuzasidan iqtisod bo‘lib, qo‘llanishi lozim bo‘lgan tegra bo‘yicha yanga texnikani joriy qilish bo‘yicha qilingan iqtisodiy ko‘rsatkich (odam-soat, odam-kular);

Tr_0-T_01 - boshlang‘ich va loyihalanadigan jarayonlardaga 1ga uchun mehnat sarfi (odam-soat, odam-kunlar);

P - istiqbolda jriy etilishi mumkin bo‘lgan rejalashtirilgan yanga texnikaning tegra bo‘yicha maydoni (ga);

Xuddi shunday yo‘l bilan metal, yoqilga, ishlab chiqarish xarajatlari, kapital sarmoyalari va boshqalar aniqlanadi.

Daromad foyda va sarmoyadorlikni aniqlashda ulgurji narxlardan aylanmadan olinadigan soliqlarsiz foydalaniladi.

Qishloq xo‘jalik texnikasiga sarflanadigan kapital sarmoyalarning xalq xo‘jaliga samaradorligani aniqlashda, korxonalarning kapital sarmoyalaridan tashqari kapital srmoyalar

bo‘yicha davlat hissasini masalan, sugorish, melioratsiya, yo‘llari qurish va x.k. belgilangan rejadaga me’yorlar bo‘yicha (maydonlar birligaga, ishlar, mahsulot birliklariga qarab) aniqlanadi.

Iqtisodiy baholashlar bo‘yicha samaradorlikkka asoslangan va kapital sarmoyalari bo‘yicha nazarda tutilgan maqsadlarga muvofiqlikni quyidagi ko‘rsatkichlar bilan ham tahlil qilinadi:

•mahsulotga bo‘lgan mehnat sarflarining o‘zgarishi, ishchikuchining bir qismini kapital sarmoyalarni sarflash natijasida kamaytirilishi yoki qo‘shimcha jalb qilinishi mumkin:

•mahsulotning moddiy vositalar sarflanishining o‘zgaruvchanliga bo‘lib, bunda xalq xo‘jaligidagi yoki qishloq xo‘jaligadaga ishlab chiqarish vositalarining qo‘shimcha resurslari asrab qolinadi, yoki ularning xarajatlari ortib boradi;

•mahsulotga bo‘lgan fondlar sig‘imining o‘zgarishi bo‘lib, ular natijasida iqtisod yoki kapital sarmoyalarining ortiqcha xarajatlari vujudga keladi.

Ayniqsa, kapital sarmoyalarining solishtirma I ko‘rsatkichlarini, yerlarning melioratsiya holatini yaxshilashga bulgan sarflarni hisoblash, ularning asosiy turdagi mahsulotning bir tonnasiga, tegishli ixtisoslikka moslashtirilgan xo‘jaliklarning melioratsiya (paxtachilik, g‘allachilik, chorvachilik bo‘yicha va h.k.), hamda suv manbalaridan olingan kubometr suv va sug‘orish uchun berilgan suv miqdoriga jihatdan bog‘liq bo‘ladi.

Barqaror qishloq xo‘jaligi kapital sarmoyalarining umumiy iqtisodiy samaradorligini aniqlashda, masalan, qayta tiklash, meloratsiya tizimlarini yaxshilashda, sug‘orish tarmoqlarini qayta qurish, zahiralarni qochirish kanallarda yo‘qolib filtrlanishini bartaraf etish, suv qabul qilinadigan inshootlarni tartibga solish, sug‘oriladigan maydonlarda zaxini tortadigan inshootlarni qurish, yerlarning mukammal tekislanishini amalga oshirish, sug‘orish texnikani takomillashitirish va boshqa tadbirlar amalga oshiriladi.

Barqaror qishloq xo‘jaligida melioratsiya tizimlarini qayta tiklash jarayonlariga kapital samaradorligini tahlil qilishda qayta qurishdan keyingi olingan ko‘rsatkichlarni qayta qurishgacha bo‘lgan ko‘rsatkichlar bilan taqqoslash o‘tkaziladi, shuningdek shunga o‘xshash loyihalanayotgan yangi tizimlarning ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh. X., Muminov N. G. Xorijiy investitsiyalar.O‘quv qo‘llanma T.: Moliya – 2010. 328 b.
2. Burxanov A.X. “Qishloq xo’jaligi iqtisodiyoti”. Darslik – T.: “TDIU”, 2019.
3. Chen, H., & Zhao, X. (2024). A Literature Review on Socialized Agricultural Services Enabling High-Quality Rural Development. *Rajapark International Journal*, 1(3), 48–59.
4. Rustamova, D., Makhmudov, O., & Yuldashev, A. (2019). Innovative Activities of Agriculture in Uzbekistan. *World Science.*
5. Qosimov, B. va boshq**. Agrosanoat majmuasida xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari.** – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2020. – 212 b.